

“BOBURNOMA” ASARIDA QO‘LLANGAN OYKONIMLARNING LUG‘AVIY- MA’NOVIY XUSUSIYATLARI

Jalilova Madina Murotovna

NamDU 10.00.01-O‘zbek tili ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchi.

Nosirjon Uluqov

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori, professor

O‘rta Osiyoning, jumladan, O‘zbekistonning xorazmiy, sug‘diy, qadimgi turkiy yozuvlarda yetib kelgan toponimlari ko‘p emas. Yunon tarixiy manbalarida tilga olingan geografik nomlarimiz ham sanoqli. Milodning birinchi ming yilligi oxiri – ikkinchi ming yilligi boshlari mintaqamiz uchun yozma manbalarda ko‘hna toponimlar ko‘plab qayd etilgan. “Devonu lug‘otit-turk”, “Buxoro tarixi”, “Hudud ul-olam”, “Arab geograflari kutubxonasi” kabi asarlar tengi yo‘q toponimik manbalardir. Bu yodnomalarda tilga olingan geografik nomlarning talaygina qismi hanuzgacha o‘z shakl-shamoyilini saqlab qolgan.

O‘rta asrning oxirlari toponimik materiallarni qamrab olishda ikkinchi oltin davr bo‘di. Xususan, Amir Temur va Temuriylar tarixi, birinchi navbatda Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”lari, ayniqsa, Zahiriddin Boburning “Boburnoma” asari ko‘plab shahar va qishloqlar, daryo va soylar, tog‘ va dovon nomlarini qamrab olishda benazirdir.

“Boburnoma” asarida 1261 ta toponim keltirilgan bo‘lib, toponim (yun.tonos-topos – joy, o‘rin + onoma – atoqli ot) – yer yuzasining quruqlik qismida joylashgan tabiiy-jug‘rofiy va sun‘iy (inson yaratgan) obyektlarning atoqli oti: oykonim, oronim, speleonim, xoronim, urbanonim, drimonim, nekronim va boshqalar. Asarda uchraydigan toponimlar ular ifodalagan obyektlarning turiga ko‘ra bir necha guruhga bo‘linadi. Bularning bir qismini aholi maskanlari nomlari – oykonimlar tashkil etadi. Ularni quyidagicha guruhladik:

1. Mamlakat nomlari: Xuroson, Movarounnahr, Afg‘oniston, Hindiston, Mo‘g‘uliston, Misr, Xitoy (Chin), Rum, Iroq, Ozarbayjon, Arabiston. Guvohi bo‘lganimizdek asarda 11 ta mamlakat nomi keltrilgan. Ammo Zulxumor Xolmanova o‘z monografiyasida mamlakat nomlarini makrotoponimlar deya sonini 9ta ko‘rsatgan: Makrotoponimlar quyidagicha: 1) mamlakat nomlari: Arabiston, Afg‘oniston, Xuroson, Hindiston, Movarounnahr (9ta).

Mamlakat – tayinli milliy, iqlimiy, madaniy, tarixiy yoki siyosiy chegaralangan hudud hisoblanadi. Yuqoridagi geografik nomlarni kuzatsak, ayrimlari tarkibida bir xil elementlarning, ya‘ni –iston qo‘shimchasining aynan takrorlanishini payqaymiz. Bunday takrorlanuvchi qo‘shimchalar topoformantlar deb ataladi. Topoformant – 1. Aslida toponim uchun asos bo‘lgan leksema (apelyativ)ga tegishli bo‘lgan, joy nomi tarkibida formal ravishda mavjud bo‘lgan qo‘shimcha. 2. Toponim hosil qilishda qatnashuvchi so‘zlovchi morfemalar. Olimlarning fikriga ko‘ra, nomlar tarkibida

ko'plab takrorlanadigan elementlar bir xil ma'noni anglatadi va aholining ko'chib yurishi to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi. Chunki bir yerdan ikkinchi bir yerga ko'chib borgan xalq joylarga o'zi bilgan va tanish bo'lgan modellar asosida nom beradi. Toponimlarning qanday gap bo'laklaridan iborat ekanligi, shakl-shamoyili modellar deyiladi.

O'rta Osiyoda sermahsul topoformantlardan biri -iston qo'shimchasidir. Ushbu komponent asosida yasalgan toponimlar toponimlarning qo'shimchali sodda toponimlar turiga kiradi. Memuarda -iston topoformanti bilan yasalgan 4 ta mamlakat nomi (Afg'oniston, Hindiston, Arabiston, Mo'g'uliston) va 7 ta o'lka nomi (Turkiston, Ko'histon, Kofiriston, Siyiston, Qahdiston, G'arjiston, Zobuliston) qayd etilgan. Bu komponent mamlakat, o'lka nomini yasaydi yoki biror narsaning ko'p ekanligini bildiradi. Chunonchi, Afg'oniston – “Afg'onlar mamlakati” demakdir: Janubi Farmul va Nag'ar va Bannu va Afg'onistondur. (107-b.) Bu mamlakat nomi asarda qay tarzda qo'llanilgan bo'lsa, hozirga qadar ham hech qanday o'zgarishsiz yetib kelgan. Afg'oniston hududida 30 da ortiq elatlar yashagan va shularning eng ko'p qismini (40%) afg'onlar (pushtun qavmiga mansub bo'lishgan) tashkil etgani uchun bu mamlakatni Afg'oniston, ya'ni afg'onlar mamlakati deb atashgan.

Asarda eng ko'p tilga olingan mamlakatlardan biri Hindiston bo'lib, asarda u Hinduston shaklida 3xil geografik atama bilan (viloyat, mamlakat, mamolik) qo'llangan: Hazrati Risolat zamonidin bu tarixgacha ul yuz podsholaridin uch kishi Hinduston viloyatiga musallit bulub, saltanat qilibturlar: bir, Sulton Mahmud G'oziy va avlodi Hinduston mamalakatida muddati madid saltanat taxtiga ulturubturlar...Avval navbatkim,Bxiraga kelduk, ming besh yuz, nihoyati ikki ming kishi bulgay eduk. Beshinchi navbatkim kelib, Sulton ibrohimni bosib, Hinduston mamolikini fath qildim. (195-b.) Mamolik – mamlakatlar (birligi – mamlakat) ma'nosini anglatadi . Hindiston – sharqiy manbalarda qisqacha hind yozilgan. Bu nom sindhu, ya'ni “daryo” so'zidan kelib chiqqan, chunki hind daryosi Sindhu (“Boburnoma”da esa Sind) deb atalgan: Sind suyining uch guzaridin o'tub, bu yo'llar bila kelurlar. (109-b.) Yerli xalq tilida “S” tovushi “H” bilan yaqinligi sababli sindhu so'zi hinduga aylangan va natijada hindular mamlakati – Hindiston atamasi yuzaga kelgan. Bobur qayd etgan Hinduston geografik atamasini yasalishi: Hindu+iston = Hinduston (o'zak unli bilan tugaganligi bois qo'shimchadagi “i” unlisi tushib qolgan). Demak, Bobur bu atamani to'g'ri qo'llagan.

Navbatdagi -iston komponentidan yasalgan mamlakat nomi Arabiston bo'lib, bu hududda arab qavmiga mansub kishilar istiqomat qilishgani uchun Arabiston deb atashgan. Bu hududga Arabiston yarimoroli va unda joylashgan mamlakatlar kirgan. Manbalarda Temuriylar davlatidan hajga boruvchilar haqida so'z borganda “Arab oroli” shaklida keladi . “Boburnoma”da bu hudud nomi bir marta Arabiston durroji munosabati bilan tilga olingan: Arabiston va ul navohining durroji “Bish-shukri tadumun nu'm” deb chorlar emish. (201-b.) Bu mamlakat nomi Bobur davrida qanday qo'llanilgan bo'lsa, hozirga qadar shunday o'zgarishsiz qo'llanib kelmoqda.

Memuarda Mo'g'uliston mamlakati ham keltirilgan bo'lib, Boburning bu hududga borgani "Boburnoma"da qayd etilmagan, ammo Mo'g'ulistonga borishni va u yerda o'z jilovi o'zining qo'lida bo'lishini maqsad qilgan. Bundan tashqari, Kobul yaylovlarini Mo'g'uliston yaylovlariga o'xshatgan, Mo'g'ulistonning semiz kiyiklarini ta'riflaganda ham bu joy nomini zikr etgan: G'arazim bu erdikim, bu bahona bila bu oradin chiqsam, Mo'g'uliston va Turfong'a borg'onda xud hech monii va dag'dag'a qolmas, o'z jilovim o'zimning iligimda bo'lur. (90-b.) Mo'g'uliston geografik nomining asosi bo'lgan mo'g'ul (mo'ng'ullar, mongollar) – Chingizxon davrida avval davlat va sulola, xalqni bildiruvchi atama sifatida qo'llana boshlagan. Chingizxon Markaziy Osiyoga bostirib kirgandan so'ng, mo'ng'ul so'zi fors tiliga moslashtirilib, mo'g'ul, keyinroq Yevropa tillarida mongol tarzida talaffuz etilgan.

Qomusnomada nomi keltirilgan mamlakatlardan yana biri Xitoydir. Bobur davrida keng ma'noda Osiyoning sharqiy qismidagi ulkan mamlakat, tor ma'noda esa sharqiy Turkiston tushunilgan. Masalan: Xitoyg'a bormoqni jazm qilib, bosh olib ketmakka azm qildim. Kichiklikdin beri Xitoy sorig'a xavasim bor edi. (90-b.) Ushbu parchada Bobur Qoshg'ar, Xo'tan tomonlarni nazarda tutgan. Hozirgi ma'nodagi Xitoy esa Chin deyilgan: Xuroson va Iroq va Rum va Chin matoi Kobilda topilur: Hindustonning xud bandaridur. (108-b.) Xitoy mamlakatining nomi ham qabila nomidan (kidan) olingan bo'lib, bizda Xito, Xitoy shaklida talaffuz etish va yozish odat tusiga kirgan. Mamlakatning ayrim qismlari Chin, Chin-Mochin, Tabg'och ham deyilgan. G'arbiy Yevropada Xina, Shina, Chayna nomi bilan yuritilgan.

Xulosa qilib aytganda, biz tahlilga tortgan mamlakatlar nomining, aksariyatini, yasalishiga shu hududda istiqomat qiluvchi etnonimlarning nomi asos bo'lgan.

2. Viloyat va shahar nomlari: Asarda juda ko'p viloyat va shahar nomlari zikr etilgan bo'lib, asarda bu joy nomlari viloyat-pargana, shahar-kent-qasaba shakllarida uchraydi. Bobur ayrim shahar nomlarining etimologiyasiga alohida to'xtalib o'tadi. Jumladan, hozirda Qashqadaryo viloyatining markazi Qarshi shahrining vajhi tasmiyasini quyidagicha izohlaydi: Yana Qarshi viloyatidurkim, Nasaf va Naxshab ham derlar, Qarshi mo'g'ulcha ottur, go'rxonani mo'g'ul tili bila "qarshi" derlar. G'olibo bu ot Chingizxon tasallutidin so'ng bo'lg'ondur. (61-b.) Agar "Boburnoma" yozilmaganida edi biz bu shaharning nomlanishini asl mohiyatini bilolmas edik. Chunki "qarshi" so'zi ko'plab turkiy doston va tarixiy asarlarda, asosan, zid, ro'para, saroy, qasr singari ma'nolarda uchrar edi, xolos. Bobur esa yuqoridagi parchada guvohi bo'lganimizdek, shahar nomi sifatida qo'yilgan "qarshi" so'zining mo'g'ulcha ekanini, bu so'z "qabriston" ma'nosini ifodalashini izohlab, asoslashga navbat kelganda, shaharning Chingizxon istilosi qurboni bo'lgani bilan izohlaydi. Demak, bu shaharning buningdek fojiali nomlanishiga jamiyat hayotida yuz bergan bosqinchilikning oqibati sabab bo'lgan. Shuningdek, bu shaharni mo'g'ul bosqiniga qadar Nasaf va Naxshab deb atalganini ham alohida ta'kidlab o'tadi.

Toponimikaga bunday mas'uliyatli, ilmiy munosabatda bo'lish namunalariga "Boburnoma" ancha boydir. Bobur Kesh viloyatining Shahrisabz deb atalishi boisini

ham juda tushunarli izohlaydi: Yana Kesh viloyatidur, Samarqandning janubidadur, to'qqiz yig'och yo'ldur. Samarqand bila Kesh orasida bir tog' tushubtur, Itmak doboni derlar, sangtaroshlik qilur toshlarni tamom bu tog'din eltarlar. Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xub sabz bo'lur uchun Shahrisabz ham derlar. (61-b.) Demak, bu shaharning nomlanishiga bahor chog'i sahrolari-yu shahri, dalalari-yu tomlari yashillikka burkangani, tabiat bilan birgalikda hamnafas bo'lgani sabab bo'lgan va "Yashil shahar" deb atalgan. Shahar nomi ikki so'zning ("shahar" sanskritcha "davlat", "mutlaqo hokimiyatning qarorgohi" va "sabz" fors-tojikcha "yashil", "yashil rangli") izofali birikuvidan hosil bo'lgan.

Shaharni davlat ichidagi davlat deyishadi. Har bir shahar o'zi bir dunyo. Shuning uchun bo'lsa kerak – shahar so'zi sanskritchada "podshohning qarorgohi" ma'nosini anglatadi. Shahar ham insonga o'xshaydi. Har bir shaharning o'z qiyofasi, tarixi va qismati bor. Ana shunday uzoq tarixga ega shaharlardan biri – Toshkentdir. Bobur mirzo asarida Toshkent shahrining tarixiy kitoblardagi variantlarini: Shosh, Choch deb atalganini va buning dalili uchun "kamoni Chochiy" iborasi bor ekanligi bayon etiladi: Oxir navbat kelaturgandakim, ul fursatta Toshkand viloyati Umarshayx mirzo tasarrufida erdikim, kitoblarda Shosh bitirlar, ba'zi Choch bitirlarkim, "kamoni chochiy" andin iborattur, berdi. (36-b.)

Toshkent haqidagi birinchi tarixiy ma'lumotlar milodning dastlabki asrlariga to'g'ri keladi. Ya'ni shaharning geografik o'rniga oid ma'lumotlar yunon olimi Klavdiy Ptolemeyning "Geografiyadan qo'llanmalar" asarida uchraydi. Toshkent shahrining nomi yozma manbalarda Choch, Chochiston, Shosh, Shoshkent shakllarida ham uchraydi. Choch so'zi ham sug'd tilida "tosh" demakdir. Shosh esa Choch nomining arabcha shaklidir. Choch yoki Shosh deyilganda, Bobur ta'kidlagandek, Toshkent tushunilgan. Toshkent toponimi ko'p adabiyotlarda "Tosh shahri" deb izohlanadi. Chunki bu hududdan tosh asriga oid buyumlar topilgan. Toshkent – ikki so'zning birikuvidan hosil bo'lgan qo'shma toponim bo'lib, Mahmud Qoshg'ariy turkiy tilda "shahar" o'rniga "kend" so'zi ishlatilishini, lekin o'g'uz qabilasi vakillari "kend" deganda qishloqni tushunishlarini aytgan. "Boburnoma"da keltirilgan Toshkand nomi bizgacha tovush o'zgarishi bilan Toshkent tarzida yetib kelgan.

Bobur Farg'ona viloyati shaharlarini birma-bir tasvirlar ekan, Axxi shahriga ham alohida to'xtalib o'tadi va bu shaharni kitoblarda Axxikat deb yozilganini va so'zi dalili uchun Asiriddin shoirning Axxikatiy taxallusi bilan ijod etganini aytadi : Sayhun suyining shimoli tarafidag'i qasabalar biri Axxidur. Kitoblarda Axxikat bitirlar. Nechukkim, Asiriddin shoirni Asiriddin Axxikatiy derlar. Farg'onada Andijondin so'ngra mundin ulug'roq qasaba yo'qtur. (36-b.) Axxikat nomi qo'shma toponim bo'lib, Axxi+kat so'zlarining birikuvidan yasalgan. Olimlar kat (kass) va kent (kand) so'zlarining aslida sug'dcha bir so'zning sheva shakli ekanligini aniqlashgan, va bizning tilimizda shahar ma'nosini anglatgan. Demak, bu shahar dastlab, Axxikat keyinchalik Axxi va hozirda Axxikent deb atalmoqda.

O'rta Osiyo hududida "kat" komponentli toponimlar keng tarqalgan bo'lib, bunday toponimlar "Boburnoma"da ham keltirilgan: Xo'jandning shimoli va Fanokatning janubiy tarafidinkim, xolo Shoxruxiyag'a mashhur, o'tub yana shimolga mayl qilib, Turkiston sori borur. (34-b.) Fanokat – Amir Temur davlatining Toshkent viloyatidagi yirik shahri bo'lib, Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Bobur bu shaharni bir o'rinda Banokat deb ham ataydi: Ma'muraning kanorasida voqi bo'lubtur, sharqi Farg'ona va Qoshg'ar, g'arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruxiyakim, Shosh va Banokat bitirlar. (59-b.) Parchada keltirilgan Fanokat, Banokat nomlari tarkibidagi "kat" so'zi "shahar" ma'nosini anglatgan va joy nomini yasagan.

Yana "kat" komponentli toponimlarga asardagi Dahkat kentini ham misol tariqasida keltiramiz: Necha kundan keyin Dahkat O'ratepaning ko'hpoya kentlaridindur, ulug' tog'ning tubida tushubtur, bu tog'din o'tgach Mascho bo'lur. (87-b.)

Bobur kent deganda katta qishloqni nazarda tutgan bo'lib, Dahkat nomi tarkibidagi "dah" so'zi fors-tojikcha "o'n", ya'ni "o'n qishloq" ma'nosini anglatgan.

Yana shunday komponentli toponimga Toshkent viloyatidagi qadimiy shahar Farkatni misol qilsak bo'ladi: Hazrati Xojago Xoja Samarqandtin chiqib kelib, Farkatga ulturub edilar. Farkatga borib Xojani ko'rdum. (87-b.) X asrga mansub "Hudud-ul olam" asarida "Farnkas" tarzida keltirilgan. Hozirda esa Parkent deb ataladi. Demak, "kas" va "kat" so'zlari "kent" so'zining tarixiy shakllari bo'lgan va o'tmishda toponimlarni yasashda faol ishtirok etgan.

Adib Farg'ona viloyati tasvirida Konibodom shahrini alohida tasvirlab, bu shaharchaning nega bunday atalish boisini o'quvchiga sharhlab ketadi: Muning tavobidin Kandibodomdur. Agarchi qasaba emas, yaxshigina qasabachadur. Bodomi yaxshi bo'lur. Bu jihatdin bu ismg'a mavsumdur. Xurmuz va Hindustong'a tamom muning bodomi borur. (36-b.) Bunday tabiiy sharoitga qarab nomlangan oykonimlar tabiiy oykonimlarning fitooykonimlar guruhiga kiradi. Chunki bu hududning nomlanishiga shu mavzedagi tabiiy muhit (bodomlarning yaxshi bo'lishi) sabab bo'lgan. Hozirgi kunda bu hudud Tojikiston Respublikasiga qarashli bo'lib, Konibodom deb ataladi. Mahalliy aholining fikriga ko'ra, Konibodom toponimi ikki qismdan: kon va bodom so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, "bodom koni" ma'nosini bildiradi. Aslida esa mazkur oykonimik nomning birinchi qismidagi kon so'zining "ko'p, mo'l, serob ma'nosiga hech aloqasi yo'qligini, u aslida "kand" so'zi bo'lib, "shahar" ma'nosida qo'llanganligini va shuning uchun Kandibodom "bodom shahri" yoki "bodomli shahar" ma'nosini anglatishini biz asar mutoalasi orqali bilib olamiz.

Bobur asarda qo'llagan ko'plab onomastik birliklarning etimologiyasiga ham, bu birliklarning motivlariga ham juda qiziqqan va memuarda tahlil qilgan. Bundan ikki xil maqsad ko'zda tutilgan. Birinchidan, Bobur asarda keng qo'llangan ba'zi forscha, mo'g'ulcha, hindcha onomastik birliklarni ma'nosini o'quvchiga yetkazishga harakat qilgan. Ikkinchidan, antroponim, toponim va narsa-hodisalarning mohiyatini yanada

kengroq yoritishga intilgan. Ma'lumotlarni ayrimlarini yerli xalq vakillaridan so'rab bilsa, ayrimlarini o'zi tahlilga tortgan. Misol uchun, Kashmir toponimi kash etnonimi asosida paydo bo'lgani ma'lum. Bobur ham bu toponimning etimologiyasiga juda qiziqadi, hind xalqidan so'raydi, taftish o'tkazadi, ammo aniq ma'lumot topa olmay o'zi tahlil qiladi: ... Hinduston elidin muncha tahqiq va taftish qilildi, hech kim bu tavoyifdin tahqiq xabar ayta almadi. Ushmuncha deydurlarkim, bu tog' elini Kas derlar. Xotirg'a yettikim, Hinduston eli "shin"ni "sin" talaffuz qilur. Chun bu tog'da mo'tabar shahr Kashmirdur, balki Kashmirdin o'zga bu tog'da yana shahre eshitilmaydur. Bu jihattin bo'la olurkim, "Kasmir" demish bo'lgaylar. (197-b.)

Bobur ziyrak tilshunos sifatida tilning tovush jihatiga ham alohida e'tibor bilan qaraydi. Tarixni yaxshi bilganligi sababli ayrim joy nomlarining atalishiga tarixan yondashadi va bu xususida o'zining fikrlarini ham erkin bayon etadi. Masalan, Kobulning sharqida joylashgan Lamg'onot viloyatining nomlanishiga kishi nomi asos bo'lganligini ta'kidlaydi va Lamg'on etimologiyasini grammatik asoslaydi: Hazrati Nuh payg'ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadur. Ba'zi tarixta Mehtar Lomni Lamak (Lamkon) ham debturlar. Ul elni xeyli mulohaza qilibturkim, ba'zi mahal "kof " o'runiga "g 'ayn" talaffuz qilurlar, bu jihattin g'olibu bu viloyatni Lamg'on depturlar. (140-b.) Shuningdek, ba'zi o'rinlarda bu viloyatni Lamg'onot deb ham qayd etadi: Sharqi Lamg'onottur. Bu viloyat besh tuman va ikki bo'luktur. Lamg'on tumanlaridin ulug'rog'i Ningnavor, ba'zi tarixlarda Nagarxor bitibturlar. (109-b.) Lamg'onot nomi tarkibidagi -ot(t) affiksi toponim yasovchi qo'shimcha bo'lib, ikki xil yo'l bilan paydo bo'lgan: biri arabcha bo'lsa, biri sug'diychadir. Yuqoridagi parchada joy nomi yasovchi qo'shimcha vazifasini bajargan. Shu bilan birga -t qadimgi turkiy va mo'g'ul tilida ko'plik qo'shimchasi vazifasida ham keladi. Quyidagi parchada bunga guvoh bo'lamiz: Yana maymundur. Hindustoni "Bandar" der. Bu ham puranvo bo'lur. Bir navi uldurkim, ul viloyatlarga eltarlar. Lo'lilar o'yi o'rgaturlar. Darayi Nur tog'larida, Ko'hi Safidning Xaybar navoxisidag'i domonalarida va andin quyi tamom Hindustonotta bo'lur. (200-b.) Misolni tahlil qilar ekanmiz, adib Hindistonni Hindistonot shaklida yozganda, bundan oldin "tamom" (butun) so'zini ishlatadi va natijada, butun Hindiston va uning atrofi degan ma'no anglashiladi. Shuningdek, -t affiksi ko'plik ma'nosini anglatganda, Bobur "tamom" so'zi bilan ma'nodosh sifatida "jami" so'zini ham qo'llagan. Ikki so'zning anglatgan ma'nosi bir bo'lib, shahar nomi oldidan kelgan va ko'plikni ifodalagan: Yana Xoja Ato edi. Agarchi alardek sohib mansabi devon emas edi, vale jami Xurosonotta Xoja Atoning bemashvarati hech muhim faysal topmas edi. (136-b.)

Hozirda bu -ot (-t) qo'shimchasi ayrim shahar nomlari tarkibida ajralmas holga kelgan. Masalan, Afg'onistondagi Hirot shahri nomini olsak, bu shahar nomi "Boburnoma"da Hiri deb qayd etilgan: Mir Alisher Navoiy Hiridin Samarqandg'a kelgan fursatlar Ahmad Hojibek bila bo'lur edi. (45-b.) Xuroson viloyati markazi bo'lgan Hiri tobora kengayib borgan va Hiri shahri tevarak-atrofi bilan Hirot deb atala boshlangan va bora-bora bu nom tub holga kelgan. Demak, Bobur memuarda birgina toponimni

ikki xil shaklda yozgan: Lamg'on – Lamg'onot, Hiduston – Hindustonot, Xuroson – Xurosonot. Bunda –ot (-t) qo'shimchasi bir o'rinda toponim yasasa, bir o'rinda ko'plikni ifodalagan.

3. Tuman va qishloq nomlari. Bobur Kobul viloyati tasvirida bir qator tuman nomlarini ham keltirib o'tadi: Bajavr, Savod, Parshovar, Hashnag'ar, Ningnahor, Alishang, Alingor, Kunar, Nurgil, Nijrov, Panjhir, G'urband, Lahugar, G'azni, Bangash va boshqalar. Bobur G'urband tumanining nomlanishiga uning geografik joylashuvi asos bo'lganini quyidagicha dalillaydi: Yana biri G'urband tumanidir. Ul viloyatlarda ko'tallarni band derlar. G'ur sari bu ko'tal bila borurlar, g'olibo ul jihatdin G'urband debturlar. (112-b.) Bobur asarda dovonni ko'tal deb atagan. Yuqoridagi parchadan shu ayon bo'ladiki, G'ur tumaniga borish uchun shu dovondan o'tilgani uchun G'urband deb atalgan.

Asarni kuzatar ekanmiz, obod unsurli toponimlarni ko'plab uchratamiz. Jumladan, Biz dam mutavajjih bulub, Shohoboddin ora ikki qunub, Jun daryosining yoqasig'a, Sarsava to'g'risi kelib tushtuk. (191-b.) XIII-XIII asrlarda ijod qilib, 10 jildlik "Mu'jam ul-buldon" ("Mamlakatlar lug'ati") ni tuzgan arab geografi va filologi Yoqut Hamaviy "shahar va qishloqlarning nomlari tarkibida keladigan obod unsuri fors tilida "aholi punkti" ma'nosini bildiradi" – deb yozgan. Demak, Shohobod degani "Shoh qishlog'i" ma'nosini anglatgan.

Shuningdek, Panjshanba kuni andin ko'chub, Tug'laqobod to'g'risi Jun yoqasig'a tushuldi. (194-b.) Parchadagi Tug'laqobod – tug'ilish ko'p bo'lgan qishloq ma'nosini anglatadi. Bobur quyidagi misolda bir joy nomini ikki xil shaklda qo'llaydi: Yakshanba kuni Sekandarada Ravuy Servaniyning uyiga tushtuk. Shanba kuni, safar oyining yigirma sakkizida Faxrijahonbegim va Hadicha Sultonbegim – amma begimlar keldilar. Kema bila borib Sekandaroboddin yuqoriroq mulozamat qildim. (233-b.) Sekandara Hindistonda Gang daryosi xavzasida joylashgan aholi maskani bo'lib, Bobur uni Sekandarobod deb ham ataydi.

Obod komponentining birikish doirasi ancha keng bo'lib, viloyat, shahar, qishloq nomlariga ham erkin qo'shilib joy nomi yasagan: Oroyishxonning oshnoligi bor ekandur. Oroyishxon bila Shayx Guranni yiborib, inoyat va shavqat so'zlari aytili. Chanderiyning mubodallasiga Shamsobodni va'da qilildi. (234-b) Shamsobod viloyat nomi bo'lib, "quyoshli maskan" degan ma'noni anglatgan.

Asardagi toponimlarni tahlil qilar ekanmiz, O'rta Osiyoga doir nomlarning ko'pchiligi hamon o'sha davradagi kabi yoziladi va talaffuz etiladi. Ammo ba'zi birlari shaklan o'zgarib yetib kelgan. Chunonchi, Toshkand – Toshkent, Kandibodom – Konibodom, Hiri – Hirot, Farkat – Parkent kabi joy nomlarini yuqoridagi misollarda tahlil etdik. Shuningdek, Marg'ilon ham Marg'inon tarzida tilga olingan: Yana Marg'inondur, Andijonning g'arbidadur, Andijondin yetti yig'och yo'ldur. (35-b)

Bundan tashqari, hozirgi Quva shahri asarda Qubo tarzida qayd etilgan: Qubodin Marg'inonga kelildi. (76-b.)

Termiz shahri Tirmiz shaklida qayd etilgan: Andin beri Kahka bila Kuhtan tog'ning janub tarafidagi viloyat, misli Tirmiz va Hindukush tog'igacha Sulton Mahmud Mirzoning tasarrufida edi. (48-b.)

Hozirgi Farg'ona viloyatining Rishton tumani asarda Rushdon deya keltirgan: Sohibi "Hidoya" Marg'inonning Rushdon otliq kentidindur. (35-b.) Shuningdek, hozirgi Qozog'iston hududida joylashgan Almati shahri asarda Olmotu tarzida, Farg'ona viloyati shimolida joylashgan Olmaliq shahri esa Olmoliq shaklida berilgan: Shimolida agarchi burun shaharlar bor ekandur, misli Olmoliq va Olmotu va Yangikim, qutubda O'tror bitirlar. (34-b.)

Yana hozirgi Buxoro viloyatidagi Karmana shahri memuarda Karmina shaklida qayd etilgan va Buxoro hamda Samarqand orasida joylashganligi qayd etilgan: Yana Karmina viloyatidur, Samarqand bila Buxoro orasidadur. (64-b.)

Samarqand bilan Shohruxiya orasida joylashgan Jizzax shahri Dizak shaklida berilgan: Mundoq dushman balosidin va ochlik ibtilosidin xalos bo'lub, amonlig' rohatig'a va arzonlig' farog'atiga yetushtuk. Uch-to'rt kun Dizakta istirohat qilduk. (86-b.) Dizak nomi sug'd tilidan olingan bo'lib, "qo'rg'on" ma'nosini anglatgan.

Xulosa qilib aytganda, "Boburnoma"da nomi tilga olingan oykonimlarning aksariyati ikki komponentlidir. Shuningdek, biz tahlilga tortgan oykonimlarning, aksariyatini, yasalishiga shu hududning tabiiy geografik sharoiti, bu hududda istiqomat qiluvchi etnonimlarning nomi asos bo'lgan. Asarda affiksli oykonimlarni ham talaygina uchratish mumkin. Bundan tashqari keltirilgan oykonimlarning bir qismi hamon o'sha davrdagidek talaffuz etib, yozilsa, bir qismi shaklan o'zgarib kelgan. Buning ahamiyatli tomoni shundaki, biz bu orqali toponimlarning tarixiy shakllarini bilib olamiz.